“Tasdiqlangan”

2024-yil “07” iyundagi bank Aksiyadorlari
umumiy yig’ilishining
AS-2-sonli bayonnomasi

Kengash Raisi

_____ J.H.Karshibayev

“Ro‘yxatga olingan”

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki

2024-yil “25”- iyun
8/1 -son

Raisining birinchi o‘rinbosari

_____ N.N.Saydullayev

№1150-1

“TURONBANK” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI USTAVIGA KIRITILADIGAN 1-SON O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR

Toshkent – 2024-yil

O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 13-martdagi “Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo‘jalik birlashmalari faoliyati samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-49-son Farmoni, Adliya vazirligida 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom, Adliya vazirligida 2020-yil 30-iyunda 3252-son bilan ro‘yxatga olingan “Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risida”gi Nizom, Bank ichki me’yoriy hujjatlariga muvofiq “Turonbank” ATB aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining 2024-yil 14-fevraldagi AS-1-sonli qarori bilan tasdiqlangan ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki Ustavi”ga quyidagi **1-son o‘zgartirish va qo‘shimchalar** kiritilsin:

1. Mazkur Ustavning **V bobi, 36-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin.

36. O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari asosida joylashtiriladigan aksiyalar, O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari va byudjet mablag‘lari hisobidan joylashtiriladigan aksiyalar yopiq obuna bo‘yicha, shuningdek ayirboshlash tartibida joylashtiriladigan aksiyalar va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog‘ozlar ochiq yoki yopiq obuna bo‘yicha amalga oshiriladi.

Aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog‘ozlar bank tomonidan joylashtirilgan taqdirda e’lon qilingan aksiyalarning soni ushbu qimmatli qog‘ozlarning muomalada bo‘lishi muddati mobaynida ayirboshlash uchun zarur miqdordan kam bo‘lmasligi lozim.

Bank o‘zi joylashtirgan qimmatli qog‘ozlar ayirboshlanishi mumkin bo‘lgan aksiyalar beradigan huquqlarni cheklash haqida ushbu qimmatli qog‘ozlar egalarining roziligisiz qaror qabul qilishga haqli emas.”

2. Ushbu ustavning **IX bobi, tegishli bandlari** quyidagi tahrirda bayon qilinsin.

187.43 Boshqaruv raisi va uning o‘rinbosarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) ishlab chiqish va tasdiqlash.

187.44. Ushbu Ustavga, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Bank Kuzatuv Kengashining vakolatlariga taalluqli boshqa masalalarni hal etish;

256. Bank faoliyatiga oid eng muhim masalalarni ko‘rib chiqish va Kuzatuv Kengashiga tavsiya va takliflar tayyorlash uchun bank Kuzatuv Kengashining quyidagi qo‘mitalari tashkil etiladi:

256.1. strategiya va investitsiyalar;

256.2. tavakkalchiliklarni boshqarish;

256.3. tayinlovlar va haq to‘lash;

256.4. audit;

256.5. korrupsiyaga qarshi kurashish va etika;

263.15. har chorak yakunlari bo‘yicha Boshqaruv raisi va uning o‘rinbosarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) to‘g‘risidagi hisobotni Kuzatuv Kengashiga taqdim etish;

271. Boshqaruv faoliyatini tashkil etish Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadigan “Turonbank” ATB Boshqaruvi to‘g‘risidagi Nizom” bilan tartibga solinadi.

Boshqaruv Raisi **Ch.S.Mirzayev**